

**PARAMEOLOGIK BIRLIKLARNING BADIY ADABIYOTDAGI
O'RNI**

Taxmina Yunusovna Mukaramxodjayeva

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti

Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti

Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada paremiologik birliklarning badiiy adabiyotdagi o'rni va ularning lingvistik hamda madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida maqol va matallarning badiiy obraz yaratish, personaj nutqini individuallashtirish, asar ruhiyatini boyitish va muallif g'oyasini ifodalashdagi funksional imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari paremiologiyaning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni va fanlararo tadqiqotlardagi ahamiyatini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: paremiologik birliklar, maqol va matallar, badiiy adabiyot, obrazlilik, milliy mentalitet.

Paremiologik birliklar tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadigan birliklar bo'lib, ular badiiy adabiyotda obraz yaratish, personajning dunyoqarashini ochish, asar ruhiyatini boyitish, mavzuni chuqurlashtirish va o'quvchiga ta'sir ko'rsatishda muhim o'rin tutadi. Bular orqali muallif xalq donishmandligidan foydalanadi, asarga milliy rang va o'ziga xoslik qo'shadi, syujet rivojiga ta'sir etadi va personaj nutqini jonlantiradi.

Ushbu birliklarning nutqiy faoliyatda hamda badiiy adabiyotda tutgan o'rni beqiyos bo'lib, aynan ushbu birliklar yordamida badiiy talqinds qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi va mavqei, fe'l-atvori, dunyoqarash hamdabilim darajasi, shu bilan bir qatorda milliy mentalitetni ko'rsatib berish xususiyatiga ega. Masalan, yuksak axloqiy qadriyatlarga ega personajlar hayotiy tajribalarini ifodalovchi maqol va matallardan foydalanishsa aksincha holatlarda so'zlashuv uslubiga xos, oddiy xalq tilidan olingan maqol va matallar ishlatiladi.

Tilshunos olim Sh. Balli fikriga ko'ra konkret obraz "tasavvurni uyg'otib va manzarani inson ongida aks ettirsa", emotsional jihatdan belgilangan obraz "his-tuyg'u orqali idrok qilinadi" hamda voqelikni qabul qilish jarayonida "ma'lum bir emotsional iz" qoldiradi. "Bunday obrazlarni idrok etishda individual his-tuyg'u katta rol o'ynashini inkor qilib bo'lmaydi" deb sharhlab utadi buyuk tilshunos. Demak, Sh. Balli uchun asosiy mezon — stilistik parametr: "Obraz biz uchun faqat u ekspressiv ma'noga ega bo'lgan taqdirdagina mavjud bo'ladi" Shuningdek, obraz qanchalik batafsil bo'lsa, u shunchalik konkret bo'ladi va tasavvurga shunchalik kuchli ta'sir ko'rsatadi.

XX asrda paremiologiya mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllana



boshladi. 1929-yilda J. L. Apperson (G. L. Apperson) tomonidan “English Proverbs and Proverbial Phrases: A Historical Dictionary” nomli ingliz paremiyalari va paremiyaviy iboralarning tarixiy lug‘ati nashr etildi. Mazkur asarda yunon va lotin tillaridan tarjima qilingan paremiyalar, shuningdek boshqa tillardan o‘zlashgan paremiyaviy birliklar jamlangan bo‘lib, bu tadqiqot ingliz paremiologik fondining shakllanish manbalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida ushbu birliklar tavsifi bilan ilk shug‘ullangan tilshunos adibimiz Mahmud Qoshg‘ariy bo‘lib, u kishining “Devonu lug‘otit turk” asarida turkiy xalqlarning madaniy merosini o‘zida aks ettirgan ko‘plab maqol va mattallar qayd ettirilgan.

Keyingi davrlarda o‘zbek paremiologiyalarini to‘plash va tizimlashtirish ishlari jadidlar davrida va XX asrda jadallashdi. Jumladan, G‘afur G‘ulom, Sadriddin Ayniy, Abdulla Qodiriy asarlarida xalq maqollari badiiy-estetik vosita sifatida keng qo‘llanilgan. Ilmiy jihatdan esa o‘zbek maqol va matallarini yig‘ish va nashr etish bilan H. Zarifov, Sh. Rahmatullayev, A. Madvaliyev kabi olimlar shug‘ullangan.

O‘zbek madaniyatida oila, jamoa, keksalarga hurmat hamda tabiat bilan uyg‘un yashash g‘oyalari muhim o‘rin tutadi. Bu qadriyatlar xalq maqollarida yaqqol aks etib, mehmondo‘stlik, o‘zaro yordam va ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan an‘analarga sadoqatni targ‘ib etadi. Bunday paremiologik birliklar o‘zbek jamiyatining jamoaviy ruhini, ijtimoiy birdamlikni hamda yer va tabiiy resurslarga bo‘lgan chuqur munosabatini namoyon etadi. Masalan, “Qari bilganni pari bilmas”, “Oltin olma duo ol , duo oltin emasmi?” “Ayolning sarishtasi, Ro‘zg‘orning farishtasi, Hovli olma, qo‘shni ol kabi maqollarda ijtimoiy rollar ko‘pincha oilaviy va jamoaviy majburiyatlar doirasida talqin qilinib, keksalar donishmandlik manbai va tarbiya beruvchi shaxs sifatida e‘tirof etiladi, oila va jamiyatda o‘zaro ko‘makning ahamiyati alohida ta’kidlanadi.

Ingliz madaniyatida esa maqollar asosan individualizm, mehnatsevarlik va ehtiyotkorlik kabi qadriyatlarni ifodalaydi. Ular shaxsiy mas‘uliyat, o‘ziga tayanish, intizom va ijtimoiy tartib g‘oyalarini ilgari suradi. “**A stitch in time saves nine**”, “**An apple a day keeps the doctor away**” kabi maqollar insonni oldindan choralar ko‘rishga, o‘z ustida ishlashga va sog‘lom turmush tarziga rioya etishga undaydi. Masalan, “Honesty is the best policy”, “Time and tide wait for no man,” “Manners makes man”, “Patience is a virtue” kabi ingliz maqollarida ijtimoiy rollar ko‘proq shaxsiy xulq-atvor va jamiyat tomonidan qabul qilingan m+-e‘yorlar asosida tasvirlanadi; halollik, punktuallik, hurmat va o‘zini nazorat qila bilish kabi fazilatlar ijobiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Zamonaviy paremiologiya bugungi kunda o‘zaro uzviy bog‘langan ijtimoiy-gumanitar paradigmlar tizimi sifatida



rivojlanmoqda. Ushbu paradigmalar bir tomondan maqol va matallar tadqiq etishdagi yondashuvlar va metodlarning xilma-xilligini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, fanlararo tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beruvchi umumiy metodologik asos mavjudligini ko'rsa

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tursunov D. Zamonaviy o'zbek tilida frazeologizmlarning semantik yangilanishi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020. – 210 b.
2. Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М., 1996. – 174 с.
3. Сидоркова, Г.Д. Прагматика паремий: пословицы и поговорки как речевое действие: монография / Г.Д. Сидоркова. – Краснодар: Изд-во Краснодарск. ун-та, 1999. – 38с
4. Семененко Н.Н. Русские паремии: функции, семантика, прагматика. – Старый Оскол: РОСА, 2011. – С.5.
5. Mukaramxodjayeva T.Y. "Ingliz va o'zbek tilidagi so'zlashuv frazeologizmlarining lingvomadaniy xususiyatlari"//Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari Respublika ilmiy anjumani, Vol. 40 No. 1 (2025)
6. Mukaramxodjayeva T.Y. "The Cultural Code of Language: "A Linguaculturological Study of English Phraseologism" American Journal of Open University Education ISSN 2997-3899 Vol. 2, No. 2, Feb 2025,
7. Mukaramxodjayeva T.Y. "Functional diversities of phraseological units Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 3-son A seriya"
8. Насруллаева, Н. З. (2017). Функционирование английских гендерно маркированных фразеологизмов в художественной литературе. *Бюллетень науки и практики*, (6 (19)), 342-348.
9. Насруллаева, Н. З. (2009). Оказиональное семантическое обновление фразеологических единиц (на материале английского языка). *Современные гуманитарные исследования*, (5), 107-109.

